



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi

$$\left(\frac{T_1}{T_2}\right)^2 = \left(\frac{a_1}{a_2}\right)^3$$



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo



OpenAIRE



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 2-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026



**“Kecha va kunduz” romanida turkiy ruhiyat va ma’rifatparvarlik g’oyalarini talqini**

**Jo’raboyeva Zamiraxon**

University of Business and Science filologiya  
o‘zbek tili yo‘nalishi KO‘Z 24-05 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida turkiy ruhiyat va jadid ma’rifatparvarlik g’oyalarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Asarda kecha va kunduz antitezasi orqali millatning zulmatdan nurga, jaholatdan ma’rifat sari intilishi yoritilgan. Qahramonlar — Razoq so‘fi, Zebi, Miryoqub va Akbarali mingboshi obrazlari orqali XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy-siyosiy muhiti, ayollar taqdiri, diniy mutaassiblik, ijtimoiy tengsizlik va milliy uyg‘onish masalalari ochib beriladi. Roman jadidchilik mafkurasi bilan sug‘orilgan realistik asar sifatida millat ruhiyati va tarixiy taraqqiyot yo‘lini badiiy aks ettiradi.

**Kalit so‘zlar:** Kecha va kunduz, turkiy ruhiyat, jadidchilik, ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish, ayollar taqdiri, ijtimoiy muhit, psixologik tahlil.

**Аннотация:** В данной статье анализируется художественная интерпретация тюркского мировосприятия и идей джадидского просветительства в романе Cho‘lpon «Kecha va kunduz». Через антитезу ночи и дня автор раскрывает процесс перехода нации от мрака к свету, от невежества к просвещению. На примере образов Разок-суфи, Зеби, Мирйокуба и Акбарали мингбоши показаны социально-политическая среда Туркестана начала XX века, судьба женщин, религиозный фанатизм и идеи национального пробуждения. Роман рассматривается как реалистическое произведение, отражающее духовное состояние нации и исторические процессы эпохи.

**Ключевые слова:** «Kecha va kunduz», тюркская духовность, джадидизм, просветительство, национальное возрождение, женская судьба, социальная среда, психологический анализ.

**Annotation:** This article analyzes the artistic interpretation of Turkic spirituality and Jadid enlightenment ideas in the novel “Kecha va kunduz” by Cho‘lpon. Through the antithesis of night and day, the author depicts the nation’s transition from darkness to light and from ignorance to enlightenment. The characters such as Razoq Sufi, Zebi, Miryoqub, and Akbarali Mingboshi reflect the socio-political environment of early 20th century Turkestan, the fate of women, religious conservatism, and the ideas of national awakening. The novel is evaluated as a realist work expressing the spiritual condition and historical development of the nation.

**Keywords:** “Kecha va kunduz”, Turkic spirituality, Jadidism, enlightenment, national awakening, women’s fate, social environment, psychological analysis.

Har qanday badiiy asar o‘z jamiyatidagi ijtimoiy, siyosiy va badiiy ifodasi bo‘lib, unda xalq ruhiyati, davr muammolari va muallifning ma’rifiy qarashlari aks etadi. Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani XX asr boshlariga to‘g‘ri keladi.



Roman jadid ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Romandagi qorong'ulik (kecha) va yorug'lik (kunduz) antitezasidan millatning zulmatdan nurga, jadid g'oyalari o'tish zaruratini ko'rsatuvchi badiiy vosita sifatida foydalangan Cho'lponning bu romani shunchaki oilaviy-maishiy drama emas, qahramonlar bu orqali ijtimoiy-siyosiy muammolarni va zolimlikka qarshi ojizligini yoritib beradi. Ushbu asar o'zbek adabiyotidagi ilk roman-dilogiya hisoblanadi va 1936-yilda to'liq chop etilgan, bu esa uni o'zbek adabiyotining eng muhim va ilk romanlaridan biriga aylantiradi.

“Kecha va kunduz” romani realistik uslubda yozilgan bo'lib, voqealar va qahramonlar tasviri real hayotga asoslangan. XX asr boshlaridagi Toshkentdagi ijtimoiy-siyosiy muhitni aks ettiradi. Sinfy tafovutlar, boylar va kambag'allar o'rtasidagi munosabatlar, adolatsizliklar va ijtimoiy ziddiyatlar aniq tasvirlanadi. Turkistonning tarixiy taraqqiyot yo'lini muallif o'zi yaqindan bilgan ijtimoiy tiplar ruhiyati orqali anglamoqchi, o'zini qiynagan savollarga javob topmoqchi bo'ladi. Cho'lpon asardagi qahramonlarni xarakteri va muammolarini hech qanday badiiy to'qima ostida yaratmaydi. Cho'lpon barchasini xalqni ichidan olib yoritib beradi. Sababi Cho'lpon shunday deydi: “Muhtaram yoshlarimiz mashaqqat bo'lsa ham xalqimizning ichida aralashib yurib kitob yozuviga materiallar tayyorlasalar. Bu yo'ldagi ehtiyojni bir qadar ado qilgan bo'lur edilar” deb kitob yozishda yosh yozuvchilarga o'z maslahatini maqolasida aytib o'tadi.

Asarning boshlanishiga qo'yilgan, mazmunini ochuvchi epigraf “Hamal keldi — amal keldi” iborasi mavjud. Ushbu ibora yangi davr, yangi hayotning kirib kelishi bilan birga yangi harakatlar, o'zgarishlar va ish-amal (jadidchilik g'oyalari, milliy uyg'onish) boshlanishini anglatadi. Asarda o'tmish an'analari, sharqqona xalq, o'zbek xalqiga xos fazilatlar tasviri jamlangan. Asarning qahramonlaridan biri Razoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, dami ichiga solgan, ziqna odam edi. So'fi maqtanib aytadi, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaltiratishni ravo ko'rmaydi. “Bu til, — deydi so'fi, — doim Xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa Haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zaruriyat yuzasidangina gaplashiladi, vassalom”.

Cho'lpon "Adabiyot nadur" maqolasida shunday ta'rif beradi: “Bizni ulamo va eshonlarimiz to'n kiymakdan, avomlarimiz choyxonalarga chiqib choy ichmakdan va ziyolilarimiz esa Ovrupo kiyimlaridan va qimmatli papirosalaridan lazzat olurlarki, «adabiyot nima?» desang, javobida yuqorida aytilgan «ya'ni, masalan»dan boshqa javoblari yo'qdir. Mana shuning uchundirki, kundan-kunga ruhimiz tushib, keladigan istiqbolimizga umidsiz qarab, boshqa millatlar kabi shod va umidli yashamaymiz va bizda shodlik va ruh bo'lmagani uchun bir ishni qilamiz deb endi o'ylaganimizda o'y yo'q — fikrlar sochilib, aqllarımız parishon bo'lib ketar”. [ 1 ]



Jadidnamo bir hamshaharining “ko‘rganimga qo‘yiladigan ajoyib maxluqlarda”. Uning ayoli esa Qurbonbibi — o‘z eri va farzandi uchun chidab kelgan qahramon. Chinakam bechora Qurbonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg‘iz qizining sepi xususida ko‘p tashvish tortadi. So‘fi esa bularni e‘tiborsiz qoldirar edi. O‘zbek erkaklariga xos jihatni, ya‘ni andishaning kichik bir ko‘rinishi (yo‘qligi)ni bu asarda kuzatamiz: Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z jufti Qurbonbibini hamma vaqt “Fitna” deb chaqiradi. “Fitna, sallamni ber!”, “Fitna, qiz o‘lguring qani?”[2,15]. Ushbu parchadan shuni anglash mumkin: erkak kishi o‘z xotinini — o‘z halol juftini qizi yoki o‘g‘lining nomi bilan atab chaqirishi odat edi. Bu odat erkak o‘z xotiniga bo‘lgan andisha va ular o‘rtasidagi ko‘rinmas devor borligini anglatadi. Bu esa o‘zaro hurmatni va andisha ustun turishini ifodalay olar edi. So‘fi o‘z nomidan ko‘rinib turibdiki, dindor, taqvodor inson, shunga qaramasdan u musulmonlarning bu urfiga amal qilmaydi va o‘z mansabiga (so‘filigiga) zid ish tutadi. O‘z xotinini “Fitna” deb chaqiradi. “Fitna” so‘zi arab tilidan kirib kelgan so‘z bo‘lib, yo‘ldan ozdirish, isyon, g‘alayon ma‘nolarini anglatuvchi salbiy ma‘noli so‘z. Bu esa o‘zaro hurmatsizlik va qadrsizlanishni namoyon etadi.

Ko‘ramizki, romanda xotin-qizlar taqdiri masalasi juda muhim. Cho‘lpon asarida ko‘p xotinlik yoki qizlarni erta turmushga berishni aks ettirgan, chunki xalqning dardi shu bo‘lgan. Cho‘lpon bu holatlarni o‘zining asari ichiga olib kirib, xalqni ko‘zini ochmoqchi bo‘lgan. “Kecha va kunduz” romanida Zebi qahramoni taxminan 17-18 yoshlar atrofida. Zebi judayam samimiy qiz va go‘zal tasvirlanadi. Zebi orqali ayollarning ilm olishga, o‘z huquqlarini anglashga ehtiyoji borligini ochib beradi. Cho‘lpon Zebini qanday go‘zal tasvirlasa, Akbarali mingboshini esa buning aksi qilib yoritadi. Akbarali mingboshini belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo‘lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Lekin uning shu yoshda Mingboshiga xotinlikka uzatilishi Zebining fojiasiga aylanadi. Mingboshining yoshi ancha katta va uning uchta ayoli ham borligi, yoshgina Zebi uchun katta fojia edi. Cho‘lpon bu asarda real hayotni yoritib beradi. Misol qilib Kibriya Qahhorova o‘z ota-onasi haqida aytadi: “Otam Samarqandga o‘z uylariga qaytganlarida 52 yosh bo‘lgan... onam Musharrafoyga uylanganlarida onam 16 yoshli qiz bo‘lganlar”. Bu voqea 1910-yildan keyingi reallik.[4].

Zebi otasi Razoq so‘fi bilan hech qanday masalada gaplashmas, onasi Qurbonbibi orqali gaplashar edi. Zebi juda jiddiy bir chehra bilan: “-Otam kulmas ekan-da!”[2,14] deganini Qurbonbibi eshitib koyib bergan edi. Cho‘lpon asarda ayollarni itoatkor va o‘z erlariga hurmati va ko‘nib yashashini ochiq-oydin ko‘rsatib beradi. Bu esa o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan xususiyat (sifatida ko‘riladi). Biz buni yana roman matnidagi Akbarali mingboshi va Zebi o‘rtasidagi munosabatda ko‘rishimiz mumkin:

“-Tur hay!- dedi Zebiga, Zebi yotgan joyidan turib fonarni balandlatdi.

-Dasturxon yoz! Yig'ulik narsang bormi?

-Ha, kosada osh bor.

-Ber buyoqqa!

-Nimaga menga qaraysan? Yo mastmisan sintaloq? – dedi mingboshi.

Zebi indamasdan dasturxon yoyib oshni qo'ydi.”[ 2, 287]

“Kecha va kunduz”da psixologik tahlil nuqtai nazaridan yuksak mahorat bilan yaratilgan xarakterlardan biri Miryoqubdir. Cho'lpon Miryoqubga ta'rif berarkan, uning ijtimoiy qiyofasiga e'tiborini qaratadi. Miryoqub “Faqir odam panada” qabilida ish ko'radi. Professor O.Sharofiddinov bu obraz haqida: “Miryoqub obrazining ziddiyatli qirralarini belgilagan narsa shundaki, u bir tomondan yangicha burjua odamiga xos sifatlarga ega, ammo ikkinchi tomondan o'z muhitidan butunlay uzilib ham ketgan emas”, - deb yozadi.[5] Miryoqub evolyutsiyasida jadid savdogar bilan uchrashuv muhim o'rin tutadi. Jadid bilan suhbatdan keyin Miryoqub: “Savollarimning javobini endi topadiganga o'xshayman... Millat degan narsamiz bor ekan, biz — omilar uni “fuqaro” deb yurganmiz. Bu yigit “millat” deganda allaqanday shirin eshitiladi”, — deydi.

Jadid “imperiya”ni tushuntirarkan, “siz-biz sog'im sigirmiz, bizning shirin sutimiz bor, ruslar va boshqa ajnabiylar bizni emib yotadilar” deganini Miryoqub albatta tushunadi. Miryoqub Akbaraliga o'xshagan minglarcha itlarning biri bo'lishni xohlamaydi. Sevgining poklovchi kuchiga ishongan adib ma'naviy ruhiy shakllanishdagi asosiy omillarni Miryoqubda namoyon etadi. Miryoqubning Mariyamga oshiqligi uni o'zgartiradi.

Millatning fojiasini Cho'lpon ayni shu e'tiqodsizlikda ko'radi. Cho'lpon tariximizning shu davrlarini “Kecha” deb ataydi. Bu zulmat qo'ynidan yorug'likka intila boshlagan qahramon — Miryoqubdir. Xulosa qilib aytganda, romanda Miryoqub va Zebi obrazlarining ruhiy holatlari va haqiqatlari xalqqa aniq ochib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot nadir? - "Sadoi Turkiston", 1914 yil 4 iyul.
2. "Kecha va kunduz " Cho'lpon.
3. “Yosh yozuvchilarimizga” Cho'lpon maqolasi — “Sadoi Turkiston”, 1915-yil.
4. “Chorak asr hamnafas” Kibriya Qahhorova.
5. “Cho'lponni anglash” O. Sharafiddinov